



UDK:811.32

Dilshoda HAMDAMOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: kavkab1985@mail.ru

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n. R.Abdusatarov taqrizi asosida

THE IMPACT OF RADIO ON THE SOCIALIZATION OF YOUTH

Annotation

Radio broadcasting exerts psychological influence on the listener through its unique and distinctive sound, guiding the process of receiving information via hearing and audio reception. Radio relies on the listener's full imagination, enabling the management of the mind through emotions and feelings. Although the invisibility of radio is considered a disadvantage, it also has positive aspects. This feature is related to the fact that radio forces the individual to think, imagine, and reflect deeply until the end. Therefore, compared to television, these simple characteristics of radio are considered a significant advantage. This article discusses the impact of radio on the socialization of youth, the coverage of youth-related topics in Russian and Uzbek mass media, especially in radio channels, and presents the views of scholars on the challenges and achievements in this area, along with suggestions and solutions.

Key words: Mass media, radio, youth, socialization.

ВЛИЯНИЕ РАДИО НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ МОЛОДЁЖИ

Аннотация

Радиопередача оказывает психологическое воздействие на слушателя посредством уникального, неповторимого звучания и направляет его на восприятие информации через слух, аудиоканал. Радио опирается на способность человека полностью вообразить происходящее. Оно способно управлять сознанием через чувства и эмоции. Несмотря на то, что «невидимость» радиопередачи считается её недостатком, у неё есть и свои положительные стороны. Это связано с тем, что радио заставляет человека размышлять, воображать и продумывать услышанное до конца. Поэтому, по сравнению с телевидением, именно эти простые особенности радиовещания считаются его важным преимуществом. В статье рассматривается влияние радио на социализацию молодёжи, освещаются темы, касающиеся молодёжи в СМИ России и Узбекистана, в частности на радиоканалах. На основе мнений учёных по поводу проблем и достижений в этой области выдвинуты предложения и решения.

Ключевые слова: Средства массовой информации, радио, молодёжь, социализация.

RADIONING YOSHLAR IJTIMOYILASHUVIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Radioeshittirish tinglovchiga o'ziga xos, takrorlanmas ovoz orqali psixologik ta'sir ko'rsatadi va informatsiyani eshitis, audio qabul qilishga yo'naltiradi. Radio shaxsni to'liq holda tasavvur etishga suyanadi. U ongni his-tuyg'u orqali boshqarishga qodir. Garchi radioeshitishning ko'zga ko'rinmasligi uning kamchiligi bo'lib hisoblansa-da, ijobiy tomoni ham bor. Bu shular bilan bog'liq-ki, radio odamni fikrlash, tasavvur qilish va oxirigacha o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun ham televideniye bilan taqqoslaganda, radioeshitishning ana shu oddiygina xususiyatlari yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Maqolada radioning yoshlar ijtimoiylashuviga ta'siri, Rossiya va O'zbekiston OAV da, xususan, radiokanallarida yoshlar haqida mavzularning yoritilishi, muammo va yutuqlar borasida olimlarning fikr-mulohazalari asosida taklif va yechimlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot vositalari, radio, yoshlar, ijtimoiylashuv.

Kirish. Globallashuv asrida yoshlarning dunyoqarashi, fikri kun sayin o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarni hayratlantirish, ularning ko'nglidan chuqur joy oladigan loyihalarni ishlab chiqish ham qiyinlashib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ularning zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalanishi, dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar, voqea-hodisalardan tez xabardor bo'lishi bilan ham izohlanadi.

“Hozirgi kunda sayyoramizda istiqomat qiladigan 15 yoshdan – 24 yoshgacha bo'lgan insonlar soni 1 milliard 200 million nafardan ortiq bo'lib, bu dunyo jami aholisining 16 foizi, deganidir. BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarining bajarilishi muddatining tugaydigani sana, ya'ni 2030 yilda ushbu ko'rsatkich 7 foiz ko'payib, salkam 1 milliard 300 million nafarga yetishi kutilmoqda.”[1].

Yoshlar masalasi – har bir OAV yoritadigan keng qamrovli, nihoyatda dolzarb va bugungi kunning muhim mavzularidan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatida 2016 yil 14 sentabrda imzolagan ilk hujjati - “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonundir. Mazkur huquqiy hujjatning maqsadi “yoshlar haqida davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat”[2]. 33 moddadan iborat qonunning muhim jihati shundaki, unda yoshlar haqida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari alohida moddalarada belgilab qo'yilgan bo'lib, yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ma'naviy, intellektual va jismoniy-axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish kabi vazifalar o'z ifodasini topgan.

Yoshlar dam olish, bo'sh vaqt va o'yin-kulgi, zamonaviy musiqa, sport haqidagi ma'lumotlarga qiziqish bildirmoqda, lekin shu bilan birga, yoshlar muammolari, siyosat, mehnat bozori, ta'lim, fan va madaniyat haqidagi xabarlar ham befarq emas. Afsuski, yosh avlod uchun mo'ljallangan keng ijtimoiy-madaniy mazmundagi ma'lumotlar zamonaviy radiostansiyalar efirini tark etmoqda.

Shunday bo'lsa-da, ijtimoiy-madaniy mazmundagi ma'lumotlarga ehtiyoj bor.

Radio boshqa ommaviy axborot vositalari kabi axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ta'lim berish, dam oldirish kabi vazifalarni bajarar ekan, bevosita radiojurnalistslar yoshlarni qiziqitira oladigan, ularning savollariga javob bera oladigan, kerak bo'lsa, muammolarini hal etishga yo'l ko'rsatadigan, maslahat va yo'nalish bera oladigan do'st-hamrohga aylanishi kerak. O'z orzularini amalga oshirishga kirishgan tashabbuskor va faol yoshlarni kashf etish, ularni radioefirlarda olib chiqish orqali radiojurnalistslar o'z atrofiga keng qatlamli yoshlar ommasini yig'ib oladi. Bu esa yoshlar auditoriyasining kengayishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, radioning ham ommalashishini ta'minlaydi.

E'tibor qaratadigan bo'lsak, ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatiladigan axborotning deyarli 60-70 foizi yoshlar bilan bog'liq mavzularni o'z ichiga oladi. Misol uchun, yoshlar salomatligini ta'minlash, ular uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish, yoshlar bandligini ta'minlash, aholining kam taminlangan yoshlar qismini moddiy-ma'naviy rag'batlantirish, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarni bartaraf etish, erta nikoh, erta tug'ruq, erta ajrimlarning oldini olish, iste'dodli va iqtidorli yoshlarni kashf etish mavzulariga bag'ishlangan mavzular har kundalik xabarlarida berib boriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Rus tadqiqotchisi D.V. Svavitskaya "Rol' SMI v protsesse sotsializatsii molodezhi" maqolasida OAVning yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rnini tahlil qilar ekan, quyidagi xulosalarga keladi: "Hozirgi paytda bizning jamiyatimizda yoshlarni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash maqsadlari zamonaviy rus ommaviy axborot vositalari tomonidan shakllanmagan, siyosat va davlat mafkurasi to'g'ri, maqsadli yoshlar siyosatini olib borish masalasida maxsus ishlab chiqilgan milliy g'oya bilan ishlanmagan. Ommaviy axborot vositalari ko'pincha inqirozli ijtimoiylashuv jarayonining rivojlanishiga hissa qo'shishda davom etadilar, bu esa, shunga ko'ra, rus yoshlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi"[3]. Olimning ta'kidlashicha, bu e'tiborsizlik oqibatida yoshlarida siyosiy va huquqiy loqaydlilikning o'sishi, yoshlar orasida ijtimoiy pessimizm va befarqlik, yosh avlod ijtimoiy ahvolidan yomonlashishi, individual hayot yo'lining noaniqligi va oldindan aytib bo'lmaydiganligi, o'zini o'zi anglash imkoniyatlarining pasayishi kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda.

Yana bir rus olimi M.A.Zeytunyan "Problema sotsializatsii molodezhi v informatsionnom obschestve: teoreticheskoe osmyslenie" nomli maqolasida shunday fikrlarni keltirib o'tadi: "Ijtimoiy tajribaga ega bo'lish yoki sotsializatsiya hodisasi insonning ijtimoiy mohiyatini belgilaydigan asosiy jarayondir. Ommaviy axborot vositalari shaxsni jamiyatga tanitishda faol vosita hisoblanadi. Shaxsning to'liq rivojlanishi faqat boshqa odamlar va jamiyat bilan o'zaro munosabat orqali bo'lishi mumkin, agar shaxs jamiyat normalari, qadriyatlari va qonunlarini o'zlashtirsa, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy tajribaning asosiy uzatuvchisidir, shuning uchun ijtimoiylashuv jarayonida ommaviy axborot vositalarining faoliyati juda muhimdir"[4]. Rus olimlarining fikrlaridan shunday xulosalarga kelish mumkin-ki, davlat mafkurasi asosida yoshlar siyosati to'liq ishlab chiqilmagan. Televizion va internetdagi kontent asosan ko'ngilochar va tijorat yo'nalishida bo'lib, milliy tarbiya masalalariga kam e'tibor qaratiladi. Inqirozli ijtimoiylashuv jarayonlari, ya'ni radikal g'oyalar, aggressiya va iste'mol madaniyati ta'siri kuchaymoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar orasida milliy o'zlikni anglash zaiflashmoqda.

"Inson bolalikdan jamiyat bilan o'zaro munosabatga kirishishi jarayonida OAV juda katta ta'sir ko'rsatadi... Oila, maktab, ko'chada, do'stlar davrasida, seksiya va klubda inson

o'zida sekinlik bilan ijtimoiy yurish-turish qoidalarini va nazorat ilmiga o'zlashtirsa, jamiyat qismiga aylana boradi. Bir tomondan, mazkur ijtimoiy guruhlar va institutlarning hammasida jurnalistika (maqola, eshittirish, teleko'rsatuv muhokamasi ko'rinishida) ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, jurnalistika mazkur guruh va institutlar muammolarini faol yechib olish imkoniyatlariga ega"[5].

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiylashuv instituti sifatida ommaviy axborot vositalariga axborotni filtrlash nuqtai nazaridan juda katta mas'uliyat yuklanadi. Ijtimoiy meyorlar va qadriyatlarining tarqalish tezligi va kengligidan tashqari, ijtimoiylashuv kanali sifatida ommaviy axborot vositalarida bitta muhim muammo mavjud - hissiy jihatdan hayajonli va ochiq yoshlar tushunmasligi mumkin bo'lgan katta axborot oqimi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Ijtimoiylashuv — biron-bir voqea-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mujassamligiga aylanishini anglatadigan tushuncha. Ijtimoiylashuv jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tarix va etnografiya fanlari tomonidan o'rganiladi. Ijtimoiylashuv — kishilik madaniyati, xususan, milliy madaniyat an'anelarini o'zlashtirib borish jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin"[6].

Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi bir vaqtning o'zida shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga va hayotning turli sohalarida ijtimoiy rollarni rivojlantirishga qaratilgan jarayon sifatida amalga oshiriladi. Shuning uchun shaxsning ijtimoiylashuvi uning ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishi ajralmas jarayonining bir qismidir.

"Ijtimoiylashuv" atamasi barcha ijtimoiy jarayonlarning umumiylikni anglatadi, buning natijasida shaxs jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ishlashiga imkon beradigan ma'lum bilimlar, normalar va qadriyatlarni o'zlashtiradi va ko'paytiradi. Ijtimoiylashuv — bu ham jamiyat, ham shaxs hayotida muhim rol o'ynaydigan, ijtimoiy hayotning o'zini o'zi takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan jarayon. Ijtimoiylashuv madaniyat, o'qish va ta'lim bilan tanishishning barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi, ularning yordamida inson ijtimoiy xarakterga va ijtimoiy hayotda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'ladi"[7].

Tahlil va natijalar. "Rossiya radioeshittirishlari o'z rivojlanishining yangi bosqichiga — asosan nodavlat radiostansiyalarga o'tganligi sababli, tinglovchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan ko'ra ko'proq foyda olish haqida qayg'uradilar"[8]. Buni afsuslanarli holat sifatida qayd etish mumkin.

Rossiya OAV kontentida yoshlarga ta'sir qiluvchi asosiy yo'nalishlar quyidagilarda o'z aksini topmoqda: Siyosiy va mafkuraviy yo'nalishlar: Rossiya OAVda ko'pincha davlat mafkurasiga oid ma'lumotlar berilsa-da, bu jarayon yosh-larga yo'naltirilgan maxsus dasturlar bilan to'liq ta'minlanmagan. Masalan, Rossiya-1, NTV, Perviy kanal kabi markaziy telekanallar ko'proq katta auditoriyaga mo'ljallangan siyosiy kontentni uzatadi. RT (Russia Today) yoki Sputnik News xalqaro darajadagi siyosiy axborotni yoritadi, lekin yoshlar ijtimoiylashuvi bo'yicha aniq maqsadli dasturlar juda kam. Ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, VKontakte, YouTube) ko'pincha davlat siyosatiga mos kelmagan, ba'zan esa radikal guruhlar tarqatayotgan materiallar ham uchraydi. Davlat tomonidan shakllantirilgan milliy g'oya mavjud bo'lmaganligi sababli, yoshlar turli xil axborot manbalari ta'sirida qolmoqda.

Ommaviy madaniyat va ko'ngilochar kontent: Rossiya OAVdagi ko'ngilochar dasturlar yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi: Televizionda TNT, STS, Muz-TV kabi kanallar ko'proq realiti-showlar, yumor va seriallarga e'tibor qaratadi. Dom-2 kabi loyihalar

yoshlarga ijobiy namunalar emas, balki maishiy janjal va yolg'on hayot tarzini targ'ib qiladi. YouTube va TikTokdagi kontent ko'pincha ma'lum bir g'oya va maqsadsiz, trendlarga asoslangan bo'lib, ijtimoiylashuv jarayoniga nomaqbul ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yoshlar zamonaviy OAV ta'sirida ko'proq iste'mol madaniyatiga moslashib, milliy va ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashish xavfi bor.


Inqirozli ijtimoiylashuv jarayonlari: Svavitskaya ta'kidlaganidek, Rossiya OAV yoshlar ijtimoiylashuvidagi inqirozli jarayonlarga hissa qo'shmoqda. Bunga misollar: Zo'ravonlik va agressiya – Rossiyadagi ba'zi kinofilmlar, qo'shiqlar va video kontentlarda jinoyat, narkotiklar, alkogolizm targ'ib qilinadi. Milliy va an'naviy qadriyatlarning kamsitilishi – G'arb madaniyati ta'sirida milliy urf-odatlar va an'analarga e'tibor pasaymoqda. Yoshlar o'rtasida radikal g'oyalar tarqalishi – Telegram va boshqa platformalarda radikal va ekstremistik qarashlarga ega guruhlar faoliyat yuritmoqda. Buning natijasida ommaviy axborot vositalari yoshlar o'rtasida ijtimoiy beqarorlikka sabab bo'lishi mumkin.

Rus olimlarining fikrlaridan shunday xulosalarga kelish mumkin, davlat mafkurasi asosida yoshlar siyosati to'liq ishlab chiqilmagan. Televizion va internetdagi kontent asosan

ko'ngilochar va tijorat yo'nalishida bo'lib, milliy tarbiya masalalariga kam e'tibor qaratilmoqda. Inqirozli ijtimoiylashuv jarayonlari, ya'ni radikal g'oyalar, agressiya va iste'mol madaniyati ta'siri kuchaymoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'rtasida milliy o'zlikni anglash zaiflashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Murojaatnomada qayd etilganidek, "mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak"[9]. Mazkur yo'nalishda OAV zimmasiga katta mas'uliyat yuklanmoqda. Ular yoshlarga oid davlat siyosatini izchillik, keng qamrovlilik, mas'uliyat bilan yoritish bilan bir qatorda, o'z tayyorlagan media mahsulotlari orqali yoshlarning ijtimoiylashuviga katta hissa qo'shmoqdalar.

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiylashtirish va tarbiyalash maqsadlari zamonaviy milliy g'oya asosida aniq va maqsadli shakllantirilgan (1-rasm. 8-bet).



1-rasm. O'zbekistonda yoshlar ijtimoiylashuvining milliy dasturi

Ushbu strategiya yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda ijobiy natijalarni beradi. O'zbekistonda radiosining yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sirini kuzatish va tahlil qilishdan avval, ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar rasmada bir-biriga bog'liq tarzda shakllantirib chiqilgan.

Xulosa va takliflar. Bugun O'zbekiston aholisining oltmish foizdan ziyodini 30 gacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Shularni e'tiborga olgan holda, barcha davlat va nodavlat radiokanallarida ana shu dolzarb mavzu kunning muhim masalasiga aylangan. Jumladan, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi "O'zbekiston", "Yoshlar", "Mahalla", "O'zbekiston 24" radiokanallari ham yoshlarga oid davlat siyosatini o'z eshittirishlari orqali targ'ib va tashviq qilmoqda.

Odatda yoshlar to'g'risidagi mavzular eshittirishlarda turli janrlar orqali qiziqarli tarzda tayyorlanib, efigra uzatiladi. Bir mavzu mamlakatimiz uzoq hududlaridagi yoshlarning turmush-tarzi haqida hikoya qilsa, boshqasi esa bugungi ularning istiqboliga bag'ishlanadi. Yana bir chiqish esa o'zida yosh iste'dodlarni kashf etib, ularni qo'llab-quvvatlashni aks ettiradi. Eshittirishlarning turli-tuman va qiziqarliligi ham ana shunda.

Zamonaviy radioefir yoshlarning axborotga bo'lgan barcha ehtiyojlarini qondira olmaydi, radiostansiyalarning axborot komponenti asosan musiqiy va ko'ngilochar

mavzularga qaratilgan. Bugungi global internet rivojlangan davrda aksariyat yoshlar ko'proq musiqiy va ko'ngilochar radiodasturlarni tinglashmoqda.

Mamlakatimiz OAV, xususan, radiokanallar o'z mediamahsulotlari orqali yoshlar ijtimoiylashuvini bevosita milliy mentalitetimiz – milliy qadriyat va urf-odatlarga hurmatni shakllantirish, buyuk ajdodlarimiz merosini asrab-avaylash, ularga yuqori hurmat ko'rsatish, vatanparvarlik tuyg'usini oshirishga yo'naltiradi.

OAV o'zining salohiyatidan kelib chiqib, yoshlar ijtimoiylashuvida ijobiy ta'sir ko'rsatish borasida harakat qiladi. O'zining ma'naviy-ma'rifiy, milliy istiqlol g'oyalari singdirilgan kontentlari bilan yoshlar ongiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Qolaversa, yoshlar tashkilotlari tomonidan muntazam ravishda siyosiy va g'oyaviy jihatdan maqsadli va milliy g'oyaga asoslangan qator loyihalar ishlab chiqiladi. Bu yoshlar ijtimoiylashuvini mustahkamlash va ularning ijtimoiy jarayonlarga ijobiy integratsiyasini ta'minlash uchun muhimdir.

Yechim sifatida davlat va jamiyat hamkorligida yoshlar uchun milliy g'oyaga asoslangan targ'ibot dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy kontentlar va ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy loyihalarni ko'paytirish zarur. Shuningdek, Rossiyada davlat va OAV yoshlar uchun maxsus ta'limiy va ma'rifiy

mediaplatformalarni rivojlantirishi muhim vazifalardan biri bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Mirzo G'. Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari. /Yangi O'zbekiston. 2023 yil 21 oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun /Xalq so'zi. 2016 yil 15 sentyabr 182 (6617)-son.
3. Svavitskaya D.V. Rol SMI v protsesse sotsializatsii molodezhi. <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-smi-v-protsesse-sotsializatsii-molodezhi-1/viewer>
4. Zeytunyan M.A. Problema sotsializatsii molodezhi v informatsionnom obshchestve: teoreticheskoe osmyslenie. <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-sotsializatsii-molodezhi-v-informatsionnom-obshchestve-teoreticheskoe-osmyslenie>
5. Muminov F. Jurnalistika – ijtimoiy institut sifatida. - T.: Universitet, 1998. B.92.
6. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: Ghafur Ghulom nomidagi NMIU, 2010, B.189.
7. Borisova, L.G. Sotsiologiya lichnosti / L.G. Borisova, G.S. Solodova. – Novosibirsk, 1997. – S. 427.
8. Kupriyanova A.V. Informatsionnye interesy molodezhi v aspekte mediabezopasnosti i ikh realizatsiya v gorodskoy molodezhnoy radioprogramme/A.V. Kupriyanova// Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2013. – S.307-311
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi / Xalq so'zi. 2020 yil 26 yanvar.